“O‘TKAN KUNLAR” ASARIDA AYOLLAR OBRAZI

Jabborova Dilafro‘z Ergashovna,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati institutining dotsenti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, PhD
dilafruzjabborova03@gmail.com, ORCID: 0000-0002-2331-9597

Xurramova Munisa Xolto‘rayeva,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati institutining 1-kurs talabasi

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.19839773

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Abdulla Qodiriyning “O‘tgan kunlar” romanida ayollar obrazi tahlilga tortilgan. Shuningdek, romandagi ayol obrazlarining o‘ziga xos badiiy mahorati, jamiyatdagi ijtimoiy muammolar, urf-odat va an’analarning inson taqdiriga ta’siri yoritilgan. Maqolada Kumush obrazi pokiza muhabbat va vafodorlik timsolida, Zaynab esa rashk va ichki ziddiyatlar qurshovida murakkab xarakter egasi sifatida ko‘rsatilgan.*

Kalit so‘zlar: *Abdulla Qodiriy, “O‘tkan kunlar” asari, ayol, xarakter, badiiy obraz, ayollar talqini.*

Annotation. *This article analyzes female characters in Abdulla Qodiriy’s novel “Bygone Days.” It also highlights the artistic mastery behind the portrayal of women, the social issues of the time, and the influence of customs and traditions on human destiny. In the article, the character of Kumush is presented as a symbol of pure love and fidelity, while Zaynab is depicted as a complex character surrounded by jealousy and inner conflicts.*

Keywords*: Abdulla Qodiriy, the novel “Bygone Days,” woman, character, artistic image, interpretation of female characters.*

Аннотация. *В данной статье анализируются женские образы в романе Абдуллы Кадыри «Минувшие дни». Также освещаются художественное мастерство в создании женских образов, социальные проблемы общества, влияние обычаев и традиций на судьбу человека. В статье образ Кумуш представлен как символ чистой любви и верности, тогда как Зайнаб показана как сложный характер, находящийся во власти ревности и внутренних противоречий.*

Ключевые слова: *Абдулла Кадыри, роман «Минувшие дни», женщина, характер, художественный образ, интерпретация женских образов.*

Kirish. O‘zbek romanchilik maktabining asoschisi Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani o‘zbek adabiyotining eng yirik va tarixiy ahamiyatga ega asarlaridan biri bo‘lib, unda XIX asr Turkiston hayoti, ijtimoiy munosabatlar hamda inson taqdiri chuqur yoritilgan. Asarda O‘zbekoyim, Oftoboyim, Kumush, Zaynab, Xushro‘ybibi kabi ayollar obrazi alohida badiiy va ijtimoiy mazmun kasb etadi. Muallif ayollar siymosi orqali nafaqat oila muhitini, balki butun jamiyatning ma’naviy qiyofasini ochib beradi. Habibulla Qodiriy o‘zining “Otam haqida” xotiralarida “O‘tkan kunlar” romanlarida ishora qilgan shaxslar roman

qahramonlariga o‘xshashi haqida fikr bildirib, *“Qodiriy ayollar obrazini, xususan o‘z oilasidan, yaqinlaridan olgan, o‘rgangan”*[2.98]ligi ta’kidlanadi. Sababi, bu davrda ayollar faqat ichkarida yashaganligi, ko‘cha hatlab tashqariga chiqmagan. Shu sababli romanning asosiy obrazlarining prototiplari real hayotda mavjudligi haqida shunday deydi: *“Dadamning: O‘zbekoyim - bu Josiyat bibing, Oftoboyim - Xonim bibing, Kumush esa - Oykumush opang”,* [2.97]deb kulganlarini xotirlayman”, - deganlarini eslaydi. Otam Kumush haqidagi xotiralarida bevosita uni Oykumush opasiga qiyoslaydi. “*Oykumush opam - qo‘ng‘iroqdek tovushli, aql-idrok, husnda haqiqatdan ham Kumushni eslatuvchi edi”(*1926-yili vafot etdi*)*, deydi. [2.98] shundan ayonki, yozuvchi o‘zining obrazlarini real hayotda ko‘rgan, o‘rgangan.

Adabiyot tahlili va metodlar. Asarning asosiy qahramoni Kumush obrazi — go‘zallik, poklik, vafodorlik va sabr timsoli sifatida namoyon bo‘ladi. U Otabekka bo‘lgan muhabbati yo‘lida barcha sinov va qiyinchiliklarga bardosh beradi. Kumushning ibo-hayosi, aql-zakovati va odob-axloqi uni ideal ayol darajasiga ko‘taradi. U nafaqat sevimli yor, balki oqila kelin sifatida ham namoyon bo‘ladi. Kumush obrazi orqali muallif o‘zbek ayolining eng yuksak fazilatlarini mujassamlashtiradi. Bunga Zaynab obrazi qarama-qarshi qo‘yiladi. “O‘tkan kunlar” romanining *“**Xon qizig‘a loyiq bir yigit**”* bo‘limida Otabek nigohida Kumushbibi siymosi ilk to‘qnashuvda shunday muhrlanadi.

— “qora ko‘zlari, kamon qoshlari...”

— A-a-a, — dedi Hasanali va qaytadan qulog‘ini tirqishg‘a olib bordi. Endi uning butun borlig‘i quloq bo‘lib aylangan, o‘zini unutib barcha diqqati hujra ichiga oqg‘an edi. O‘rtadan ko‘b fursat o‘tmadi, boyag‘i uyqusirash yana takrorlandi: — “Oy kabi yuzlar, kulib boqishlar, cho‘chib qochishlar... Uff. [1.20].

Abdulla Qodiriy Kumush obrazini quyidagicha tasvirlaydi: *“Uning qora zulfi par yostiqning turlik tomonig‘a tartibsiz suratda to‘zg‘ib, quyuq jinggila kiprak ostidag‘i timqora ko‘zlari bir nuqtag‘a tikilgan-da, nimadir bir narsani ko‘rgan kabi…. Qop-qora kamon, o‘tib ketgan nafis, qiyig‘ qoshlari chimirilganda, nimadir bir narsadan cho‘chigan kabi… to‘lg‘an oydek g‘uborsiz oq yuzi biroz qizilliqg‘a aylangan-da, kimdandir uyalgan kabi…..*” [1.23]. Yozuvchi tomonidan oppoq yuzli, qora ko‘zli, kelishgan qomatli, nozik, hayoli va tarbiyali qiz sifatida ta’riflangan Kumush obrazi, uning xarakteri kitobxonni o‘ziga asir etadi. Ota-onasiga itoatkor, qalbi pokiza qiz Kumush obrazida o‘zbek qizlariga xos bo‘lgan jihatlar bisyor.

Asarda O‘zbek oyim, Otabekning onasi bo‘lib, eski qarashlarga sodiq, qat’iyatli va ba’zan keskin xarakterga ega obraz sifatida namoyon bo‘ladi. O‘zbek oyim orqali muallif o‘tmish avlod vakillarining dunyoqarashi, ularning urf-odatlarga ko‘r-ko‘rona ergashishi va bu holat yoshlar taqdiriga qanday ta’sir qilishini ko‘rsatadi. Aynan

uning qarorlari voqealar rivojiga jiddiy ta’sir qiladi. O‘zbek oyim ta’rifi *“Ota-ona orzusi”* nomli bo‘limda shunday ta’riflanadi:

“O‘zbekoyim ellik besh yoshlar chamaliq, chala-dumbul tabiatlik xotin bo‘lsa ham, ammo eriga o‘tkirligi bilan mashhur edi. Uning o‘tkirligi yolg‘iz eriga emas, balki butun Toshkand xotinlarig‘a ham om edi. O‘zga xotinlar uning soyasiga salom berib to‘ylarida, azalarida, qisqasi, tiq etgan yig‘inlaridagi uylarining to‘rini O‘zbekoyimga atagan edilar” [1.100]. Ko‘rinib turibdiki, O‘zbekoyim nafaqat oilada qolaversa, jamiyatda ham matonatli, hammaga birdek gapi o‘tadigan, kuchli ayol sifatida namoyon bo‘ladi. Yana bir o‘rinda: *“Ul o‘z uyida o‘lturg‘anida ham ustidagi atlas ko‘ynak bilan adras mursakni, oq shohi dahana bilan kahrabo tasbihni qo‘ymay, qish kunlari tanchada paryostiqqa suyalib, yoz kunlari ayvonning to‘riga yoslanib Hasanalining xotini bo‘lg‘an Oybodoqqa, cho‘ri qiz Hanifaga xamirni achitmaslikni, palovni qirmoch oldirmasliqni tanbihlabkina o‘lturar edi”* [1.101].

Bu parcha orqali O‘zbekoyimning xatti-harakati va ko‘rinishi orqali o‘ziga bino qo‘ygan, oilada va jamiyatda ham o‘z mavqeiga ega bo‘lgan did kitobxon ko‘z o‘ngida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, u faqat bezak yoki tashqi hasham bilan cheklanib qolmasdan, oila, uy ishlarini bevosita qilmasa-da, ularni boshqaradi: xamirni achitmaslik, palovni buzmaslik kabi mayda, ammo muhim detallargacha nazorat qiladi. Bu holat orqali o‘sha davrdagi ijtimoiy muhit manzarasi aks ettiriladi — ya’ni uy bekasi rahbar, xizmatkorlar esa ijrochi vazifasini bajaradi. Shuningdek, bu orqali yozuvchi jamiyatdagi tabaqalanishni ham mohirona qistirib ketadi. Bir o‘rinda buyruq beruvchi, hukmron ayol, ikkinchi tomonda esa xizmatkor, cho‘ri va boshqa ayollar siymosi gavdalantiriladi. Shu orqali o‘sha davrning real manzarasi namoyon bo‘ladi.

Muhokama. Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” asarida ayollar obrazi markaziy o‘rinlardan birini egallaydi. Yozuvchi bu timsoli orqali jamiyatdagi muammolar, insoniy fazilatlar va ijtimoiy ziddiyatlarni mahorat bilan qalamga oladi. Asarda O‘zbekoyim, Oftoboyim, Kumushbibi, Zaynab va Xushro‘ybibi kabi obrazlar asarning bosh qahramonlari sifatida Mohira oyim, To‘ybeka, Oybodoq, Jannat kabi yordamchi obrazlar sifatida namoyon bo‘ladi. Asarda mavjud ayol obrazlari orqali turli ijtimoiy qatlam vakillari tasvirlanadi. Asardagi har bir ayol obrazi o‘ziga xos xarakterga ega bo‘lib, ular orqali muallif ayollar ruhiyatining nozik jihatlarini ochib beradi.

Romanda Zaynab obrazi — rashk, hasad va ichki iztiroblar girdobida yashayotgan, o‘z qobig‘iga o‘ralib qolgan, ayol timsolida shakllantirilgan.

Yozuvchi romanda Zaynab va uning opasi Xushro‘yga shunday ta’rif beradi: *“Zaynab egachisi Xushro‘ydan yetti yosh chamasi kichik edi. Garchi bu ikki egachi-*

singil bir qorindan talashib tushkan bo‘lsalar ham sajiya – xarakterda tanib bo‘lmasliq darajada bir-birlaridan farqlik edilar. Sajiyadagina emas, surat va siymo vajida ham katta o‘zgaliklar bor edi. Xushro‘y uzun bo‘ylik, qotmaroq va zarracha tanlik edi. Zaynab qisqa bo‘y, go‘shtdor va oq tanlik edi. Xushro‘yning harakati yengil va lavzi tez edi. Zaynab lappos va o‘nta so‘zga arang bitta javob qaytarar edi. Xushro‘yning ko‘zi o‘ynab, har sekuntda o‘n yoqqa alang‘lar edi. Singlisi bo‘lsa birav bilan betma-bet kelib so‘zlashkanida ham ko‘zini hamisha bir nuqtadan uzmas edi” [1.283].

Biz Zaynab obrazini o‘rganishimizda bevosita opasi Xushro‘y bilan birgalikda o‘rganishimiz joiz. Chunki Kumushning fojeasida Zaynab e’tiqodiga singib ketgan xarakter sabab bo‘la olmasdi. Unga madad berib turuvchi Xushro‘yning borligi unga turtki bo‘ladi. Aslida u yomon emas edi, balki muhit va sharoit ta’sirida ruhiy jihatdan ezilgan jabrdiyda shaxs sifatida namoyon bo‘ladi. Shu sababli asarda Zaynabning Kumushga nisbatan munosabati orqali ayollar o‘rtasidagi murakkab munosabatlar, ayniqsa ko‘pxotinlilik salbiy oqibatlari yoritiladi. Muallif bu obraz orqali jamiyatdagi ayrim salbiy an’analarni ham tanqid ostiga oladi.

Asarda Oftoboyim, Kumushning onasiga shunday ta’rif beriladi: *“... ichidan atlas ko‘ynak, ustidan odimi xon atlas guppi kiygan, boshig‘a oq dakanani xom tashlag‘an, o‘ttuz besh yoshlar chamaliq go‘zal, xush bichim bir xotin. Yuzidan muloyimliq, eriga itoat, to‘g‘riliq ma’nolari tomib turg‘an bu xotin qutidorning rafiqasi – Oftoboyim”.* Biz Oftoboyim siymosida eriga itoatli, o‘zbek ayollariga xos siymosini ko‘z oldimizga keltiramiz. Bu oilada Mirzakarim qutidor rafiqasi Oftoboyim bilan maslahatlashib ish ko‘radi, bu oila ayolining oqilaligidan darak beradi. Lekin u yolg‘iz qizini Toshkentga kelin qilib jo‘natishini xohlamaydi, aksincha, kuyovi Otabekni ichkuyov bo‘lishini xohlaydi. Bu holat voqealar rivojining keskin o‘zgarib ketishiga sabab bo‘ladi. Ota-ona orzusi masalasini ko‘ndalang bo‘lishiga sabab bo‘ladi.

Natijalar. Romanda To‘ybeka, Mohim oyim, Oybodoq, Jannat va Hanifaniso kabi yordamchi obrazlar ham uchraydi. Bu obrazlar asarning badiiy qimmatini yanada ochib berishga xizmat qiladi. Masalan, To‘ybeka qutidorning uyida xizmat qiladigan ochiq ko‘ngil, mehribon obraz sifatida gavdalanadi. “O‘tkan kunlar” romanida To‘ybeka obrazi esa muallif tomonidan quyidagicha tasvirlanadi: *“....O‘choq boshida qo‘polg‘ina, qirq besh yoshlar chamaliq yana bir xotin choy qaynatib yuradir. Bu xotin ersa oilaning cho‘risi - To‘ybeka”*[1.23]. Bu obraz romanda qutidor oilasining eng ishonchli a’zosi sifatida e’tirof etiladi. Uni har doim xo‘p deyishini kanda qilmaydigan hazilkash inson sifatida e’tirof etadi. Hatto, *“Kiroyi kuyaving shundog‘ bo‘lsa”* nomli bo‘limida Oftoboyim ham dastlab kuyovi

Otabekning ta’rifini To‘ybekadan eshitadi. U doim hamma narsani yaxshilikka yo‘yadi. Aytish joizki, asarda epizodik obrazlar ham asarning yadrosiga, ya’ni cho‘qqisiga erishishida o‘ziga xos vazifani ifodalaydi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, romanda ayollar obrazi orqali muallif jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni, ayniqsa, ayollarning taqdiri va ularning oila hamda jamiyatdagi o‘rnini yorqin ochib beradi. Ushbu obrazlar nafaqat voqealarni rivojlantiradi, balki asarning g‘oyaviy mazmunini mukammal yoritishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdulla Qodiriy. Tanlangan asarlar. “O‘tkan kunlar”. – T.: “Sharq”, 2018. – 880 b.
2. Habibulla Qodiriy. Otam haqida: Xotiralar. – To‘ldirilgan 2-nashri. – T.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1983. – 224 b.
3. https://oyina.uz/uz/article/1205
4. https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/maqolalar/o-tkan-kunlar-haqida-ba’zi-haqiqatlar